

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY KAMPETENSIYALARINI UMUMIY PEDAGOGIKA FANI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING METODIK PARAMETRLARI

Ustamova Nodira Maxmaraimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
nodiraustamova@gmail.com (+998919542629)

Ashurova Dinora Faxriddinovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va innovatsion kompetentligini shakllantirish masalalari yoritilgan. Kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, mustaqil va ijodiy yondashuvning o‘rni hamda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda raqobatbardoshlik, mustaqillik, yaratuvchanlik kabi sifatlarni shakllantirish zaruriyati asoslab berilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak pedagog, kasbiy kompetentlik, innovatsion faoliyat, kreativlik, mustaqil ta’lim, pedagogik yondashuv, zamonaviy ta’lim, raqobatbardoshlik, kasbiy malaka, kompetensiya.

Kompetentlik atamasi “samaradorlik”, “erishish”, “muvaqqafiyatlilik”, “tushunish”, “natijalilik”, “ega bo‘lish”, “sifat”, “miqdor” so‘zlari yordamida ta’riflanadi. Shu bilan birga, ko‘pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta’kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o‘lchash va xususiyatlarini aniqlashdagi qiyinchiliklar bilan ortga suriladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik — “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik — mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Kasbiy kompetentli o‘qituvchi, birinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta’lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi; ikkinchidan, o‘z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi; uchinchidan esa, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi. Bundan tashqari, bo‘lajak

pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetensiya — o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga mos metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo‘lib hisoblangan va bir tizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo‘lmagan narsa bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e‘tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o‘qituvchida metodik parametrlarni analitik, bashorat qilish, loyihalash va refleksiv ko‘nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo‘luvchi faoliyatdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va yangi metodik malakasini oshirish sohasida tubdan islohotlar olib borilmoqda. Dunyolar bo‘yicha o‘zining munosib o‘rniga ega, kuchli bilimli, talim bozorida raqobatbardosh, salohiyatli, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kadrlarni, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, ilmiy savodxonligini yuksaltirish, ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda, mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz,” deb bejizga ta‘kidlanmaganligini aytib o‘tish lozim. Ta‘lim muassasalarida aynan shunday nuqtai nazar bilan yondashilib kelinayotganligi, barkamol shaxs, innovatsion kasbiy va shaxsiy kompetentlik masalasi diqqat markazida ekanligi o‘z samarasini beradi, albatta. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirishda, eng avvalo, o‘qitishda talabning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish va ko‘zlangan maqsadga erishish muhim sanaladi. Kompetentlik — kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan

belgilanadi. Innovatsion kasbiy kompetentlik esa talabaning shaxsiy imkoniyatlari yig'indisi, uning o'z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatda o'rinli va maqsadli qo'llay olish qobiliyatidir. Innovatsion kasbiy kompetentlikning shakllanishida asosiy o'rinni talabaning mustaqil faoliyati egallaydi. Mustaqil fikrlash va yangiliklarni fanga olib kirish talabaning kasbiy faoliyatini yanada chuqurroq egallashi uchun xizmat qiladi. Ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda, mustaqil faoliyat talabani har qanday sharoitda va holatda o'zining salohiyatlarini to'laqonli ishga solish, amaliy faoliyatlariga tatbiq etishga odatlantirib boradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning takomillashib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Bu qobiliyat doimiy ravishda o'qib-o'rganishlar, yangilikka intilish, izlanishlar, muntazam harakatlar orqali shakllantiriladi va takomillashib boradi. Bu, o'z navbatida, talabaga yaratilgan muhitga ham bog'liqdir. Bunday vaziyatda pedagog o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, maqsadli harakatlarga erishishi, natijadorlikni qo'lga kiritishi va bu faoliyatlarni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijodkorlik va yaratuvchanlikka alohida e'tibor qaratishi zarur. "Kreativlik" tushunchasi quyidagicha sharhlanadi: Kreativlik (lot., ingl. createv— yaratmoq, creative — yaratuvchi, ijodkor) — ta'lim oluvchining yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik —bu bir xillikdan qochish, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ma'lum bir narsaga yangicha yondashish ko'nikmasidir. Aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan holda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga mustaqil, ijodiy va amaliy tayyorlash muammosi har doim psixologiya va pedagogika sohasi diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat va samaradorlik ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va pedagoglarning o'zlashtirgan kasbiy kompetensiyalarini kelgusi mehnat faoliyatidagi amaliyotga tatbiq qilish darajasi bilan bog'liq.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud: kreativ fikrlash va faollikni shakllantirish; yaratuvchilik, muammolarga ijodiy yondashishni rivojlantirish; talabalarining kreativ faoliyatini yanada kuchaytirishga erishish; talabalarining kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z yuqori mavqeyiga ega bo'lish ko'nikmasini shakllantirish; qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish. Bo'lajak pedagoglarni har tomonlama salohiyatli, raqobatbardosh, intellektual etib tayyorlashda yuqoridagi barcha sifatlariga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bilan birga, bo'lajak pedagog o'z kasbi uchun mumkin bo'lmagan quyidagi shaxsiy sifatlarni yenga olishi shart:

rasmiyatchilik;
beparqlik, loqaydlik;
jizzakilik;
qarorlarni qabul qilishda bir tomonlamalik.
bilim olishdagi xatoliklarni
tartibsizlikni yo‘qota bilishi lozim deb hisoblayman.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagog o‘zi uchun shaxsiy individual ish metodini izlashi va aniq innovatsion pedagogik faoliyat maydonini aniqlashi lozim. Ta’lim oluvchining diqqatini jalb eta olishi, uning his-tuyg‘usini, harakatini rivojlantirishi va ta’sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlay bilishi, uni murakkablashtirishi, ta’lim jarayonini integratsiyalashgan holda tashkil eta olishi, ta’limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan o‘rinli va maqsadli foydalanishi, umumiy va aniqroq qilib aytganda, ta’limni bolaga moslashtira bilishi lozim. Bo‘lajak pedagog doim yangi metodlarni o‘ylab topishi va bolalar bilan doimiy, an’anaviy tarzda darslar o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Har bir pedagog doim o‘z ustida ishlab, kreativlikka yondashishi shart bo‘ladi. Chunki biz zamonaviy davrda rivojlanib kelayotgan yoshlarni yangi o‘quv dasturlari bilan qiziqtiradigan metodik parametrlar bilan shakllantirishimiz kerak bo‘lgan pedagoglarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Spenser L., Spenser M. (2003). Kompetensiya asosida menejment. Moskva: Eksmo.
2. Xodjiev A., Turaev B. (2020). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Karimov I. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
4. Mirziyoyev Sh.M. (2016). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaati, 14-dekabr.
5. Sultonova D., Ergashev R. (2019). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi.